



2020-2025 yillarda “Beshinchi tashabbus-xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash” bo’yicha bajarilgan ishlar

2020-2021 o'quv yilida "Beshinchi tashabbus-xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash" bo'yicha bajarilgan ishlar



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi.

SamVMI "DILBAR QIZLAR" TO'GARAGIGA XUSH KELIBSIZ



TIKUVCHILIK

SIZDA IQTIDOR BORMI?

**O'Z ISTE'DODINGIZNI
NAMOIYISH QILISHNI
XOXLAYSIZMI**



PAZANDACHILIK

**TIKUVCHILIK SIRLARINI BILASIZMI,
YOKI O'RGANISHNI ISTAYSIZMI ?**


**MOHIR PAZANDAMISIZ, YOKI
O'RGANISHNI XOXLAYSIZMI ?**

**BIZNING QUYIDAGI TELEGRAM
KANALGA A'ZO BO'LING !**

https://t.me/SamVMI_Dilbar_gizlar

SO'ROVNOMA - ANKETA TO'LDIRING

**TO'GARAKNING A'ZOSIGA AYLANING
ISTE'DODINGIZNI NAMOYON QILING !**



TO'QUVCHILIK




KARVING SAN'ATI

**KARVIN SAN'ATIDA O'ZINGIZNI KASHF
ETISHNI XOXLAYSIZMI ?**

**TO'QUVCHILIK SIR-ASRORLARINI
O'RGANISHNI ISTAYSIZMI ?**

Активация
Проблема



PAZANDA QIZLAR



"Pazanda qizlar" nomli onlayn rasmlar tanlovi 3-ishtirokchisi Qahhorova Flora Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti 202-guruh talabasi. Veterinariya diagnostikasi fakulteti talabasi Ergasheva Mashxura ning "PAZANDA QIZLAR" Onlayn tanlovi ishtiroki uchun tayyorlagan pishiriqlar



Samarqand Veterinariya meditsinasi instituti Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti va @SamVMI_5_Tashabbus telegram kanali bilan birgalikda "ENG YAXSHI QO'L MEHNATI" online tanlovi o'tkazilishini e'lon qilamiz! Tanlovga materiallar 3 ta nominatsiya bo'yicha qabul qilinadi:

- 1.ENG YAXSHI HUNARMAND
- 2.ENG YAXSHI LIBOSLAR DIZAYNERI
- 3.ENG YAXSHI PAZANDA

G'oliblar 1-2-3-darajali diplom va estalik sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

"ENG YAXSHI QO'L MEHNATI" Onlayn tanlovi 2-ishtirokchisi Biotexnologiya,chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti 205-guruh talabasi Feruzabonu Mustafoqulova.

"ENG YAXSHI PAZANDA" nominatsiyasi uchun 5-tashabbus (Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash) yo'nalishi



"Go'zallik - ilm-u hunarda" online ko'rik-tanlovi 5-ishtirokchisi .Biotexnologiya,chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti I bosqich 105-guruh talabasi Aminova Anora. 5-tashabbus (Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash) yo'nalishi



"Go'zallik - ilm-u hunarda" online ko'rik-tanlovi 6-ishtirokchisi .Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti III bosqich 308-guruh talabasi Nizomova Sarvinoz.5-tashabbus (Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash) yo'nalishi




"Go'zallik - ilm-u hunarda" online ko'rik-tanlovi 28-ishtirokchisi. Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti I bosqich 104-guruh talabasi Toshboyeva Marjona. 5-tashabbus (Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash) yo'nalishi.



"Go'zallik - ilm-u hunarda" online ko'rik-tanlovi 22-ishtirokchisi. Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti II bosqich 205-guruh talabasi Sa'dullayeva Maftunaxon. 5-tashabbus (Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash) yo'nalishi.



"Hunarli qiz-baxtli qiz"
online ko'rik-tanlovi
16-ishtirokchisi.
Zooinjeneriya fakulteti I
bosqich 102-guruh
talabasi Shodiyorova
Zilola



"Hunarli qiz-baxtli qiz"
online ko'rik-tanlovi
20-ishtirokchisi.
Zooinjeneriya fakulteti I
bosqich 102-guruh
talabasi Shodiyorova
Zilola



"Go'zallik - ilm-u hunarda"
online ko'rik-tanlovi 3-
ishtirokchisi
Biotexnologiya, chorvachilik
mahsulotlarini qayta
ishlash texnologiyasi
fakulteti I bosqich 105-
guruh talabasi
Umirzoqova Gulgina



Samarqand Veterinariya meditsina institutining talabalari o'rtasida "Besh muhim tashabbus"ning 5-tashabbus (Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash) yo'nalishi doirasidagi "Hunarli qiz-baxtli qiz" online ko'rik-tanlovi g'oliblari:

I o'rin sohibasi Iqtisodiyot va agrotexnologiya fakulteti IV bosqich 427-guruh talabasi O'rinboyeva Adolat,

I o'rin sohibasi Zootexnologiya fakulteti IV bosqich 407-guruh talabasi Nurmuhamedova Ruxshona,

III o'rin sohibasi Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti I bosqich 102-guruh talabasi Mustafoyeva Shahnoza institut rektori tomonidan ushbu faxriy yorliq bilan taqdirlanadi.



Institutimizda tashkil etilgan "Besh muhim tashabbus" doirasida o'tkaziladigan ko'plab tanlovlarda o'zining pazandachilik, tadbirkorlik bo'yicha ishlari bilan ishtirok etib kelayotgan, Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti 207-guruh talabasi O'rozova Umidaxon bugun yana bir muvaffaqiyatga erishdi.

"Eng yosh ishbilarmon ayol"
Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan
"Besh muhim tashabbus" doirasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.



October 31. 2020

Birgina beshinchi tashabbus ya'ni "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari" bo'yicha olib borilayotgan amaliy tadbirlar natijasida bugun ko'plab xotin-qizlarimiz kichik tadbirkorlik faoliyatida o'zlarini sinab ko'rishmoqda. Samarqand Veterinariya meditsinasi instituti Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti 205-guruh talabasi Tangatarova Hilola ham bugun o'z tadbirkorlik faoliyatini yurgizishi natijasida 10ta tikuvchi xotin-qizlarni ish bilan ta'minlagan.







"Go'zallik - ilm-u hunarda"
online ko'rik-tanlovi 14-
ishtirokchisi

**Veterinariya diagnostika va
oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti
203-guruh talabasi Suvanova
Shaxlo**

**5-tashabbus (Xotin-qizlarni ish
bilan ta'minlash)**

2021-2022 o'quv yilida "Beshinchi tashabbus-xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash" bo'yicha bajarilgan ishlar



"Besh tashabbus-besh imkon". Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiri, gender tenglik va ular bandligini ta'minlash maqsadida ko'plab loyihalar bo'lib o'tmoqda. Samarqand veterinariya meditsinasi institutida bo'lib o'tgan "Yoshlar Festivali"da Beshinchi tashabbus doirasida 30-oktabr kuni hunarmandchilik, pazandachilik, tikuvchilik, karving san'ati ko'rgazmalari va musoboqalar hamda jamiyatimizda o'z o'rniga ega bo'lgan yosh tadbirkor ayollar va institutimizning talaba-qizlari o'rtasida "Ishbilarmon ayollar" nomli tanlov bo'lib o'tdi.



"QADIMGI MILLIY QADRIYATLARIMIZ" nomli foto lavhalar tanlovi 7-ishtirokchisi Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti 101-guruh talabasi. Tojiboyeva Xumora



"QADIMGI MILLIY QADRIYATLARIMIZ" nomli foto lavhalar tanlovi 6-ishtirokchisi Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti 103-guruh talabasi Abduraximova Munisa



Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti 305-guruh talabasi. Berdimurodova Dilafruz

"BESH MUHIM TASHABBUS"-FAROVON KELAJAGIMIZNING MUSTAHKAM POYDEVORI

2021-yil

Samarqand Veterinarya medisinasi instituti 2-TTJda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Besh muhim tashabbus"ning beshinchi "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash" yo'nalishi doirasida Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti 304-guruh talabasi Hasanova Nilufar rahbarligi ostida tashkil etilgan "Pazandachilik" o'quv kursi davom etmoqda.



“Ustoz ilimli-shogird bilimli” shiori ostidagi ko'rik tanlovi



"Mohir qo'llar " yo'nalishi bo'yicha quyidagi talabalar qimmatbaho sovg'alar va diplomlar bilan taqdirlandi.



- 1.Jamshidova Yodgora 101-guruh talabasi 1-darajali diplom;
- 2.Qo'yliyeva Shahribonu 212-guruh talabasi 2-darajali diplom;
- 3.Soipova Zuxra 112-guruh talabasi 3-darajali diplom;





"Besh muhim tashabbus" doirasida fakultetimizning faol qizlari tomonidan tayyorlangan taom va shirinliklar. Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti talabasi Ergasheva Mashxura

"Besh muhim tashabbus" doirasida fakultetimizning faol qizlari tomonidan tayyorlangan taom va shirinliklar. Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti talabasi Ergasheva Mashxura



BESHINCHI TASHABBUS SARHISOBI!

"Besh tashabbus-besh imkon". Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiri, gender tenglik va ular bandligini ta'minlash maqsadida ko'plab loyihalar bo'lib o'tmoqda.

October 31, 2021



Samarqand veterinariya meditsinasi institutida bo'lib o'tgan "Yoshlar Festivali"da Beshinchi tashabbus doirasida 30-oktabr kuni hunarmandchilik, pazandachilik, tikuvchilik, karving san'ati ko'rgazmalari va musoboqalar hamda jamiyatimizda o'z o'rniga ega bo'lgan yosh tadbirkor ayollar va institutimizning talaba-qizlari o'rtasida "Ishbilarmon ayollar" nomli davra suhbatini bo'lib o'tdi.



Ko'rgazmada hunarmand talaba qizlar o'zlari tikkan liboslarni, qo'l mehnati asosida yaratilgan taqinchoqlarni, karving san'ati namunalarini namoyish etishdi.

Ko'rgazmani institut Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori A.Q.Gapparov ochib berdi va hunarmand, tikuvchi, pazanda qizlarimizning ko'rgazmadagi san'at asarlari namunalarini baholashda bevosita ishtirok etdi.



Unga ko'ra:

"Eng chiroyli dasturxon bezatgan qizlar"-Iqtisodiyot va agrotexnologiya fakulteti qizlar jamoasi, "Eng mazali pishiriqlar tayyorlagan qizlar"- Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti jamoasi, "Eng zamonaviy dasturxon bezatgan qizlar"- Biotexnologiya, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi fakulteti jamoasi, "Eng mohir pazanda qizlar"-Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti jamoasi, "Eng milliy pishiriqlar tayyorlagan qizlar"-Zooinjeneriya fakulteti jamoasi qizlari deya baholandi.

UNIVERSITETIMIZDA BESH MUHIM TASHABBUS MARKAZI TASHKIL ETILDI



Bugun SamDVMChBU Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi qoshida «Besh muhim tashabbus» markazining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. «Besh muhim tashabbus» markazida 20 dan ortiq ijodiy klub va to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Markaz qoshidagi to'garaklarda universitet hamda mahallalarning uch mingdan ortiq yoshlari qamrab olingan.

November 15, 2022





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 martdagi «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlashni tubdan takomillashtirish» to'g'risidagi qaroriga asosan, Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetini hamda tizimda faoliyat yuritayotgan professional ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlarini kompleks rivojlantirish Dasturi» ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan mazkur loyihadan katta maqsad ko'zlangan. Markaz qoshida tashkil etilgan to'garaklar yoshlarni yaxshi mutaxassis bo'lishi uchun, qolaversa, kasb - hunarlarga yo'naltirish uchun xizmat qiladi. Marosimda so'z olgan mutasaddilar markazning ahamiyati xususida o'z fikrlarini bayon etdilar.



BESH TASHABBUS-YOSHLARGA QANOT



Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilning mart oyida beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu – yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga oladi. Yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Shu munosabat bilan Biotexnologiya fakulteti assistenti Abdullayeva Y. Katta o'qituvchi Ròziqulova Z. Universitet Besh muhim tashabbus markazi rahbari Abdullayeva Sh. boshchiligida universitet talabalari ishtirokida beshinchi tashabbus dastur rejasidagi "MOHIR QO'LLAR" to'garagi bòlib o'tdi.



“MOHIR QO‘LLAR” to'garagi jarayonlaridan fotolavhalar

November 10, 2022



Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.



Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish” bo’yicha 5 ta muhim tashabbusi doirasida “BESHINCHI TASHABBUS” –Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalarini nazarda tutadi.





Biotexnologiya fakulteti professor o'qituvchilari va universitet talabalari ishtirokida 5 muhim tashabbus doirasida navbatdagi "MOHIR QO'LLAR" to'garagi bo'lib o'tdi.



To'garak rahbari Abdullayeva Y. tomonidan olib borilayotgan "MOHIR QO'LLAR" to'garak rejasiga muvofiq "Atir sovundan gullar yasashni o'rganamiz" mavzusida bo'lib o'tdi. Atir sovundan tayyorlanadigan gullar alohida qoliplarga eritib solinadi. Bitta gulga o'rtacha 2 soatdan 2 kungacha vaqt sarflanishi mumkin.



Bu gullarning afzallik tomoni uyda 1-2 yilgacha hidi kelib turadi. Sovg'aga berganda juda ajoyib sovg'a bo'ladi. Bir kunda shunaqa idishchaliklardan 40-50 ta tayyorlasa bo'ladi. Buketlardan 10-15 tacha, kattaroq buketlardan bo'lsa, 5 tagacha tayyorlasa bo'ladi.



To'garak qatnashchilarining ko'pchilik qismi ushbu qo'l mehnati natijasini ko'rib o'zlarida qiziqish paydo bo'ldi va kelajakda bu hunarni puxta egallab, o'zlari uchun daromad keltiradigan va estetik zavq beradigan hunar ekanligiga amin bo'ldilar.

Beshinchi tashabbus bo'yicha "Tikuvchilik to'garagi bo'yicha" Tikuv mashinalarida qiyin choklarni va andozalarni yasash mavzusidagi to'garakdan lavhalar.



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida 5 muhim tashabbusning 5-yonalishi bòyicha TIKUVCHILIK tògaragi tashkil etildi. Tògarak rahbari Biotexnologiya fakulteti Biologiya, ekologiya va dorivor òsimliklar kafedrası assistenti Shukurova M. 19-asrgacha barcha xalqlarda, jumladan, O'rta Osiyo xalqlarida ham tikuvchilik ishlari qo'lda bajarilgan. Ba'zi sohalarda bu kasb namunalari yuksak san'at darajasiga ko'tarilgan (mas., gulko'rpa, zarbof to'n, choyshab, jiyak va h.k.). Turli davrlarda tikuvchilikdan mustaqil kasb sifatida etikdo'zlik, mahsido'zlik, po'stindo'zlik, do'ppido'zlik, kashtado'zlik, gilamchilik va boshqa ko'plab kasb turlari ajralib chiqqan. Zamonaviy texnika bilan uskunalangan korxonalar tashkil etildi, mahalliy tikuvchi, kosib va boshqa hunarmandlar tikuvchilikning yangi texnikasini o'zlashtirdilar.



Universitetda Samarqand shahar hokimligi bilan hamkorlikda "Referendum - 2023: Kelajaging uchun ovoz ber! targ'ibot tadbirining yakuniy bosqichi, ya'ni "O'zbekiston yoshlar mamlakati" shiori ostida Yoshlar festivali bo'lib o'tdi.

Festivalda universitet rektori, professor Xudaynazar Yunusov, yoshlar masalari bo'yicha birinchi prorektor Alibek Gapparovlarga Samarqand shahar hokimi o'rinbosari Orif Hayitov hamrohlik qildi. Shuningdek, universitetda tashkil etilgan "Tashabbus markazi" qoshida faoliyat ko'rsatayotgan ijodiy to'garaklar o'z na'munaviy ko'rgazmalari bilan festivalga yanada fayz kiritdi. Tanlov natijalariga ko'ra "Shaxmat" o'yinlari bo'yicha 1-o'rinni Biotexnologiya fakulteti 3-bosqich 306-guruh talabasi To'rayev E. va 3- o'rinni 302-guruh talabasi Tojiyev Sh., "Bahs munozara" tanlovi bo'yicha 1-o'rinni Biotexnologiya fakulteti jamoasi, "Tashabbus markazi" qoshida faoliyat ko'rsatayotgan ijodiy to'garaklar bo'yicha faxrli 2-o'rinni Biotexnologiya fakulteti 203-gurux talabasi O'ralova S, "Insholar tanlovi" bo'yicha Biotexnologiya fakulteti 204-gurux talabasi Suyarova V. va 104-guruh talabasi Imomov S faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi. G'oliblar Universitetimiz rektori X.B.Yunusov tomonidan estalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

